

**MUSIQALI DRAMMA OPERAL VA BALET**

Andijon Davlat Universiteti

*1-kus talabasi **Orifjonova Zulfizar***

Annotatsiya: *Ushbu maqolada musiqali drama, opera va balet san'at turlarining shakllanishi, o'zaro aloqasi va badiiy ifoda vositalari ilmiy-tahliliy yondashuv asosida o'rganiladi. Musiqa, dramaturgiya va sahna harakati uyg'unligi orqali obraz yaratish jarayoni, tarixiy taraqqiyoti va bugungi davr san'atida tutgan o'rni yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *musiqali drama, opera, balet, badiiy ifoda, dramaturgiya, sintez, tasviriylilik, sahna san'ati*

Kirish

Musiqa san'atining eng murakkab va mukammal janrlaridan biri bu musiqali sahna asarlaridir. Musiqali drama, opera va balet o'z mohiyatiga ko'ra turli badiiy ifoda vositalarini sintez qilib, kuchli emotsional va estetik ta'sir uyg'otadi. Ushbu maqolada mazkur janrlarning har biri alohida tahlil qilinadi hamda ularning badiiy xususiyatlari va o'zaro bog'liqligi yoritiladi.

Musiqali drama – musiqa (vokal va cholg'u) hamda so'z san'atiga asoslangan sahna asari musiqali teatr janridir. Ilk namunalaridan masalan: V asr Hindiston, XII asr Xitoyda shakllangan. Mazkur janr Ozarbayjonda 20-asr boshida, O'rta Osiyo va Qozog'istonda 1920-yillarda vujudga kelgan. Musiqali dramada sahna voqealari, qahramonlarning ichki kechinma va holatlari, o'zaro munosabatlari so'z, musiqa, dramatik harakat, shuningdek, raqs orqali ifodalanadi.

Musiqa va so'z bir-birini to'ldirib asar mazmunini ochishga yordam beradi. O'zbekistonda musiqali drama janri 1910—1920-yillardan milliy adabiy-badiiy tomosha san'ati va musiqa merosi zaminida shakllana boshladi. Uning tarkib topishida o'zbek xalq tomoshalarida musiqadan foydalanish tajribalari shuningdek ozarbayjon teatrining musiqali dramatik spektakllari muhim rol o'ynadi. Hamzaning „Hoy, ishchilar“, „Qarmoq“, „Quzg'unlar“ kabi inssenirovkalari, „Farg'ona fojiasi“



tetralogiyasi; Gʻulom Zafariyning „Halima“ pyesasi; Xurshidning Navoiy dostonlari asosida yaratilgan. „Farhod va Shirin“, „Layli va Majnun“ asarlarida Musiqali dramaning oʻziga xos jihatlari mustahkamlasha boshlanadi. Oʻzbek musiqali dramasi oʻz taraqqiyotida bir necha davrni bosib oʻtdi. Bundan avval pyessaga mos musiqa materiali xalq ijodidan saralab olingan boʻlsada, 1930-yillarning boshida S. Abdullaning „Poʻrtana“, Muzaffar Muhamedov va Komil Yashinning „Ichkarida“ kabi zamonaviy asarlari sahnalashtirilganida xalq musiqa merosi namunalarini qayta ishlashga urgʻu berilgan. Oʻzbek bastakori va kompozitorlari musiqali drama musiqasining ifodaviy imkoniyatlarini kengaytirishdi. „Layli va Majnun“ Navoiyning shu nomli dostoni asosida Xurshid librettosi; T. Sodiqov va N. Mironov musiqasi, „Farhod va Shirin“ Navoiy-Xurshid, V. Uspenskiy, „Gulsara“ K. Yashin; R. Glier kabi Musiqali dramalar shular jumlasidandir. Musiqali dramaning adabiy va musiqa jihatidan yuksalishida dramaturglardan K. Yashin, S. Abdulla va bastakor T. Jalilovning xizmatlari katta. Ular qalamiga mansub „Nurxon“, „Ravshan va Zulxumor“ K. Yashin; T. Jalilov, „Tohir va Zuhra“, „Alpomish“, „Muqimiy“, „Gul va Navroʻz“ S. Abdulla, T. Jalilov kabi dramalar mavjud. 1950-yillardan boshlab bu janrda mustaqil ijod qiluvchi oʻzbek kompozitorlari yetishib chiqdi: M. Leviyev, A. Muhamedov, S. Boboyev, H. Rahimov. Ik. Akbarov, D. Zokirov, D. Soatqulov, S. Jalil, M. Yusupov, S. Hayitboyev, M. Bafojev, M. Mahmudov, F. Olimov va boshqa Ular oʻzbek musiqa merosi, Yevropa professional musiqa uslubi, ifoda vositalari va shakllari jumladan, ariya, duet va boshqa ansambllar, xor va raqs sahnalariga tayanib, oʻz Musiqali drammalarida haqiqiy musiqiy dramaturgiya hosil qilishga harakat qilishdi. Kompozitor va ijrochilarning malakasi oshishi natijasida musiqali drama zamonaviy professional musiqali dramatik janr darajasiga koʻtarildi. Oʻziga xos xususiyatlariga ega boʻldi. „Vatan ishq“ (Z. Fatxullin, Sh. Saʼdulla; S. Boboyev), „Momo yer“ (Ch. Aytmatov qissasi asosida T. Tula insseniroykasi; I. Akbarov musiqasi), „Navoiy Astrobodda“ (I. Maxsumov; Y. Rajabiy, S. Jalil), „Prometey“ (Y. Marsinkyavichyus; M. Bafojev), „Yusuf va Zulayho“ (R. Bobojon; F. Olimov), „Kumush shahar malikasi“ (I. Sulton; Ik. Akbarov) kabi musiqali dramalar bunga misol boʻla oladi.



Murodova, Dilara; Gʻafurbekov. Toʻxtasin. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

Pekker Y., „Uzbekskaya opera“, Moskva, 1984-yil.
Murodova D., „Mustaqillik davri Oʻzbekiston kompozitorlik ijodiyoti toʻgʻrisida“, Musiqa ijodiyoti masalalari, Toshkent, 2002-yil.

Opera lotincha:opera – „mehnat mahsuli“, „asar“ – musiqali dramatik sanʼat janri bólib Opera qorishma (sintetik) janr boʻlib, u oʻzida bir nechta sanʼat turlarini mujassamtira oladi. Unda dramaturgiya, musiqa, tasviriy sanʼat va raqs sanʼati shakllari yaxlit sahnaviy jarayonda uzviy bogʻlanadi. Lekin musiqa ular orasida yetakchi oʻrin egallaydi. Operaning adabiy asosi – libretto (tarjimasi „kitobcha“) dagi voqealar musiqiy dramaturgiya vositalari bilan, avvalo, vokal musiqa shakllarida gavdalantiriladi. Qahramonlarning hissiy kechinmalari, asosan, yakkaxon xonandalar ijrosidagi ariya, kavatina kabi tugal musiqa lavhalarida oʻz ifodasini topadi. Operadagi rechitativ tugal musiqa shakllarini oʻzaro bogʻlab, musiqiy dramaturgiya jarayonida muhim vazifalar bajaradi. Turli vokal ansambl duet, trio va boshqala qahramonlarning oʻzaro munosabatlari, dramatik voqealar oʻz aksini topadi. Xor roʻy berayotgan voqealarning izohlovchi vositasi vazifasini bajaradi, uning yordamida xalq hayoti lavhalari gavdalanadi. Operada orkestr ham katta oʻrin egallaydi. Vokal shakllarga joʻr boʻladi, mustaqil cholgʻu qism antrakt, uvertyura, introduksiya va boshqalarga vaziyatning mazmunini ochib beradi.

Har bir sahnaning ruhiy holatini ifodalashga yordam beradi. Operaning tuzilishi uning gʻoyaviy maqsadiga, syujet xususiyatlariga, musiqiy-ijodiy maktab anʼanalari va uslublariga hamda kompozitorning ijodiy tafakkuriga bogʻliqdir.

1970–1980-yillari oʻzbek kompozitorlari opera janrini mavzu jihatidan boyitiladi. Shu davr ichida ham tarixiy – „Mangulik“ U. Musayev, „Fidoyilar“ S. Boboyev, zamonaviy – „Sadoqat“ R. Abdullayev, atoqli shaxslarga bagʻishlangan – „Sugʻd elining qoplani“ I. Akbarov, „Zebunniso“ Sayfi Jalil, „Alisher Navoiy“ M. Burhonov, shuningdek, kamer operalar – „Sohilda toʻqnashuv“ N. Zokirov, „Ona qalbi“ Hab. Rahimov va boshqa operalar ham sahnalashtirildi.



Balet bu fransuzchadan olingan bólib ballet lotincha: ballo – raqsga tushaman degan ma’noni bildiradi. Asar mazmuni musiqiy xoreografik obrazlar vositasi bilan ifodalanadigan sahna san’ati turi. O’zida san’atning dramaturgiya, musiqa, xoreografiya, tasviriy san’at kabi turlarini uyg’unlashtiradi, bu san’at turlarining hammasi alohida-alohida mavjud bo’lmay, baletning sintez markazi bo’lgan xoreografiyaga bo’ysunadi. Balet librettochi, kompozitor, baletmeyster va rassom hamkorligida yaratiladi. Baletning dramaturgik asosi libretto (ssenariy)dan boshlanib, unda asarning asosiy mazmuni, g’oya, ziddiyat va harakterlari aniq belgilanadi. Libretto ko’pincha adabiy asarga asoslanib, uni musiqa va xoreografiyada gavdalandirish imkoniyati hisobga olinadi. Ssenariy asosida esa kompozitor balet musiqasini yaratadi. Uning izchilligi, sahna ko’rinishi, parda va nomerlarga bo’linishi ssenariyda ko’rsatiladi. Musiqa faqat ssenariyni ifodalabgina qolmay, balki musiqali obrazlarning mazmuni bilan uni boyitadi. Balet musiqasi xoreografiyani yaratish uchun asos bo’lib xizmat qiladi. Balet— musiqada yozilgan, xoreografiyada gavdalandirilgan drama. Xoreografik harakatning asosi raqs va inson tanasining plastikasidir. Baletda raqsning mumtoz, harakterli, sahna, xalq, erkin plastika, „modern“ kabi turlaridan foydalaniladi. Mumtoz raqs Yevropa balet san’atida yetakchi o’rinni egallab, pantomima, raqsning boshqa turlari, sport va akrobatika elementlari bilan boyib bormoqda. Balet spektaklida dekoratsiya, libos, yorug’lik va boshqa hamma tasviriy vositalarni musiqiy-xoreografik harakatga uyg’unlashtirish rassomning vazifasidir. Balet spektaklining ijrosi, musiqiy talqini va musiqa bilan raqs harakatining uyg’unligiga dirijyor rahbarlik qiladi. Baletning fojia, komediya, pyesa, balet – simfoniya kabi janrlari mavjud. Balet spektakllari bir pardali, ko’p pardali bo’ladi. Balet atamasi asosan 16–19-asrlar davomida shakllangan yevropa balet san’atini ifodalaydi, lekin 20-asrdan kengroq talqin qilinib, Osiyo va Afrika mamlakatlarining raqs tomoshalariga nisbatan ham ishlatiladi. Yevropa baletining paydo bo’lishi qadimiy xalq musiqali raqs tomoshalariga borib taqaladi. 15–16-asrlar teatrlashgan raqslarning shakllanish jarayoni avval Italiyada, so’ng boshqa mamlakatlarda balet san’atini vujudga kelishiga sabab bo’ldi. 1581-yil Fransiyada yaxlit va rivojlangan mazmunli musiqa, raqs, pantomima, so’z va ashula bilan



ifodalangan birinchi balet spektakli „Qirolichaning hajviy baleti“ yaratildi. 1661-yil Parijda tashkil qilingan „Qirollik raqs akademiyasi“ baletning professional san’atga aylanishida katta rol o’ynadi. 18-asrda Angliya, Avstriya va Fransiya balet batamom mustaqil san’at turi sifatida shakllandi. Rossiyada birinchi balet spektakli 17-asrning 70-yillarida „Orfey va Evredika haqida balet“ yaratilgan.

O‘zbekistonda professional balet san’atining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan. 1918-yil Toshkentda Turkiston xalq konservatoriyasi zaminida Davlat rus opera teatri tashkil qilindi. Teatr qoshida kichik balet truppasi ham bo‘lgan. 1929-yil teatr opera va balet teatri nomini oldi. „Lolaqizg‘aldoq“ R. Glier, „Raymonda“ A. Glazunov, „Ferenji“ B. Yanovskiy, „Boqchasaroy favvorasi“, „Kavkaz asiri“ B. Asafyev kabi B.lar qo‘yildi. 1933-yil Toshkentda 1-Respublika balet maktabi 1935-yildan Tamaraxonim nomida ochildi. 1933-yil birinchi o‘zbek milliy balet pantomimasi – „Paxta“ baletmeyster Us t a Olim Komilov sahnalashtirildi. Keyinchalik „Shohida“ F. Tal, „Gulandom“ Ye. Brusilovskiy, „Tog‘lar qalbi“ A. Balanchivadze, „Laylakcha“ D. Klebanov kabilar o‘zbek mumtoz va xalq raqslari asosida yaratildi. 1941-yilda balet maktabining birinchi bitiruvchilari G. Izmaylova, R. Urmanseva, N. Tarshilova qabilar balet truppasiga kelib qo‘shildi. Ammo truppada tayyorlangan kordebaletning yuqligi mumtoz baletlar qo‘yish imkonini bermasdi. 1943-yildagina „Oqbilak“ S. Vasilenko baleti qo‘yildi. 1948-yil o‘zbek opera va balet teatri Sverdlov nomidagi rus opera va balet teatri bilan birlashtirilib, A. Navoiy nomidagi opera va balet teatriga aylantirildi va tajribali kordebalet artistlari bilan kuchaytirildi. „Bukri toychoq“ Ch. Puni, „Don Kixot“ L. Minkus, „Oqqush ko‘li“ P. Chaykovskiy kabi mumtoz, „Raqqosa“ G. Mushel kabi milliylik qo‘yildi. 1948 – 51-yillar Moskva xoreografiya bilim yurti qoshida ochilgan o‘zbek balet studiyasida H. Komilova, G. Mavayeva, K. Yusupova, F. Nosirova, Yo. Hojisaidova, L. Bashirova, A. Nazrullayev, R. Tanguriyev va boshqa ta’lim olshadilar.

1947-yil Toshkentda xoreografiya bilim yurti tashkil qilindi. „Yoshlik“ M. Chulaki, „Esmeralda“ Ch. Puni, „Uyqudagi go‘zal“ P. Chaykovskiy kabi spektakllar qo‘yildi. 50-yillarning o‘rtalarida balet truppasi B. Krriyeva, L. Komilova, S. Tanguriyeva, V. Proskurina, R. Kurmasva, V. Vasilyev, K. Soatov va boshqa balet



artistlari bilan to'ldirildi. Truppa tarkibining yangilanishi repertuarga ijro uslubi murakkab mumtozdir., „Jizel“, „Shopeniana“ kiritish imkonini berdi. 60-yillarda „Bolero“ M. Ravel, „Don Juan“ K. Glyuk, „Spartak“ A. Xachaturyan, „Korsar“ A. Adan, „Kashmir afsonasi“ G. Mushel, „Layli va Majnun“ I. Akbarov, „Sevgi tumori“, „Temur Malik“ M. Ashrafiy, „Qirqqiz“ L. Feygin, „Semurg“ B. Brovsin, „Suhayl va Mehri“ M. Leviyev va boshqalar sahnalashtirildi. 70-yillarga kelib, mumtoz, zamonaviy va milliy baletlar bilan o'zbek B.i boyidi. „Tanavor“ D. Shostakovich, „Antoniya va Kleopatra“ E. Lazarev, „Afsonalar vodiysida“ U. Musayev, „Dunyoning yaratilishi“ A. Petrov, „Sevgi haqida qissa“ O. Medikov, „Sevgi va qilich“ M. Ashrafiy, „Uzilgan qo'shiq“ A. Kalninish va boshqa spektakllar shular jumlasidan.

Xulosa

Musiqali drama, opera va balet sahna san'atining uchta asosiy ustunidir. Ularning har biri o'ziga xos badiiy ifoda vositalariga ega bo'lsa-da, umumiy jihati – musiqaning yetakchi o'rni – ularni birlashtirib turadi. Mazkur janrlarni chuqur o'rganish san'atshunoslikda muhim ahamiyat kasb etadi hamda musiqiy tafakkurning rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

- 1) I. A. Akbarov. Музыка лугати. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.
- 2) I. A. Akbarov. Музыка лугати. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 1997 — 384-bet. ISBN 5-645-02422-2.
- 3) „Balet“, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. (B-harfi). Toshkent: „O'zbekiston milliy ensiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2006-yillar.